



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FUQAROLIK JAMIYATI ASOSLARI

Mirzarayimova Zebiniso Mansurbek qizi

MG'MAHT yo'nalishi 3-bosqich talabasi
Andijon davlat universiteti

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25- Aprel 2023 yil

Ma'qullandi: 28-Aprel 2023 yil

Nashr qilindi: 06-May 2023 yil

KEY WORDS

Fuqarolik jamiyat, Konstitutsiya, huquq, fuqarolik manbasi, islohotlar, tizim, iqtisodiy jihat, siyosiy jihat, ma'naviy-axloqiy jihat, fuqarolik jamiyati institutlari, xususiy mulk.

ABSTRACT

Maqolada fuqarolik jamiyati, O'zbekiston Respublikasida fuqarolik huquqi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, ularning konstitutsiyaviy asoslari aks etgan.

Erkin fuqarolik jamiyatini qaror toptirish O'zbekiston xalqining ulug'vor maqsadlaridan biridir. Konstitutsiyaning mazmun va mohiyatidan shu narsa qat'iy ayonki, mamlakatimizda shakllantirilayotgan jamiyat – demokratiya va adolat tamoyillariga tayanuvchi erkin insonlar jamiyati bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov shunday degan edi: "Biz fuqarolik jamiyati qurishga intilmoqdamiz. Buning ma'nosi shuki, davlatchiligimiz rivojlana borgan sari boshqaruvning turli xil vazifalarini bevosita xalqqa topshirish, ya'ni o'zini-o'zi boshqarish organlarini yanada rivojlantirish demakdir."¹. Prezident yana quyidagilarga e'tibor qaratgan edi: "Biz uchun fuqarolik jamiyati – ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqiqshiga ko'maklashadi. Ayni vaqtda boshqa odamlarning huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ya'ni erkinlik va qonunga bo'ysunish bir vaqtning o'zida amal qiladi"².

Fuqarolik jamiyatining mohiyatini nima tashkil qiladi, bu qanday jamiyat?

Eng umumiy tarzda lo'nda ta'rif beriladigan bo'lsa, fuqarolik jamiyati – ijtimoiy hayotning davlat ta'siri va aralashuvidan, ma'muriy tazyiqlardan holi bo'lgan hamda insonlarning xususiy turmush sohasini tashkil etuvchi munosabatlar majmuidir.

Hozirgi davrda falsafiy, siyosiy va yuridik adabiyotlarda fuqarolik jamiyatini ta'rif va tavsif etishga faol harakat qilinmoqda. Bu ta'riflardan ba'zilarini talqin etaylik.

¹ Karimov.I.A.O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbollarning asosiy tamoyillari. -T.:O'zbekiston,1995.14-b.

² Karimov.I.A.O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.:O'zbekiston.1997.173-b.

Fuqarolik jamiyati – davlatdan mustaqil va undan holi munosabatlar va vositalar tizimi bo'lib, u shaxs hamda jamoatlarning ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayot sohalaridagi xususiy manfaat va ehtiyojlarini amalga oshirishga sharoit yaratadi.

Fuqarolik jamiyati aksariyat hollarda insonlarning xususiy manfaat va ehtiyojlari sohasi tarzida ta'riflanadi. Fuqarolar huquq va erkinliklarning asosiy ko'pchilik qismi mana shu xususiy hayot sohasida ro'yobga chiqariladi. Biroq bu shaxslarning ijtimoiy hayotda ajralib qolganligini, begonalashtirilganligini anglatmaydi.

Fuqarolik jamiyati – shaxslarning oddiy yig'indisi emas, balki ular o'rtasidagi rang-barang aloqalar, hamkorlik, hamjihatlikning ifodasidir. Mazkur mushtaraklik va hamjihatlik tashkiliy-institutsiyaviy ko'rinishga ega bo'lib, u turli ijtimoiy kuchlar, nodavlat tashkilotlar, birlashmalar mavjudligi bilan tavsiflanadi.³

Yuqorida aytib o'tganimizdek fuqarolik jamiyati oddiy tuzum emas, unda fuqarolarning, insonlarning o'rni katta.

Fuqarolik jamiyatiga to'xtalar ekanmiz, eng avvalo, asosiy qonunimiz bo'lmish Konstitutsiyaga e'tibor qaratishimiz darkor.

Jamiyat va davlat qurilishining boshlang'ich asosini, xalq ommasining erkini, irodasini o'zida mujassamlashtirgan hujjat davlatning Asosiy Qonuni huquqshunoslikda Konstitutsiya deb yuritiladi. Konstitutsiya — muhim siyosiy-huquqiy hujjat bo'lib, hokimiyat to'g'risidagi, shaxsning huquqiy holati haqidagi, davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishi kabi masalalar uning mazmunini tashkil etuvchi asosiy manba bo'lib hisoblanadi.

Mustaqillik sharofati tufayli 1992-yili 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi. Erkinlik va ozodlikni, mustaqillik va hurlikni tantanali tarzda o'zida namoyon etuvchi bu muqaddas huquqiy hujjat qabul qilingan qutlug' sanani xalqimiz umumxalq bayrami sifatida keng nishonlab kelmoqda. Mustaqillik Konstitutsiyasi jahonning siyosiy xaritasida yangi suveren davlat – O'zbekiston Respublikasi paydo bo'lganligini qonuniy tasdiqlab berdi.

O'zbekiston Konstitutsiyasining o'ziga xos mazmuni shundan iboratki, u o'zbek xalqining tarixiy va milliy qadriyatlarini, g'arb demokratiyasining insonparvarlik tamoyillarini o'zida mujassam etadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi o'zida jamiyatimiz barcha a'zolarining, shu jumladan yoshlarning manfaatlarini, ularning haq-huquqi va erkinliklarini to'la ifoda etadi. Chunki kelajagimiz bo'lgan yoshlarning davlatimiz har tomonlama qudratli davlatga aylanishida faol ishtiroki hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yoshlarning qobiliyati, is'tedodi, bilimiga muvofiq ijtimoiy ehtiyojlarini e'tiborga olib, ilm olish, kasb, mashg'ulot turi va ish tanlash huquqini o'z ichiga oluvchi huquqlar majmuyi Konstitutsiyaviy qoidalarda mustahkamlab qo'yilgan.⁴

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson huquqlarini himoya qilib, fuqarolik jamiyatini ham o'z ichiga oladi va bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyati qurish uchun keng miqyosdagi islohotlar amalga oshirilmoqda.

Fuqarolik jamiyati – ma'lum ijtimoiy tizim bo'lib, unda shaxsga iqtisodiy va siyosiy turmushning o'z ixtiyori asosida qurishga to'la erkinlik kafolatlanadi. Fuqarolik jamiyatida umuminsoniy huquqlar ta'minlanadi va siyosiy turli fikrlik o'rnatiladi. Fuqarolik jamiyatida

³ U.Tadjixanov,X.Odilqoriev,A.Saidov.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. "Sharq" nashriyot-marbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2001.389-b.

⁴ H.H.Mahmudov,R.T.Berdiyarov,G.M.Isroilova.Huquqshunoslik. "Voriz nashriyot".Toshkent-2010.150-151-b.

davlat faoliyati yuzasidan fuqarolarning to'la nazorati o'rnatiladi, davlatning ko'pgina vazifalari mahalliy joylarda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga, jamoat birlashmalariga, nodavlat tashkilotlariga o'tadi. Hozir O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda.⁵

Sharqda Fuqarolik jamiyatining o'ziga xos talqini mavjud. Bu bevosita, axloq, madaniyat va ma'naviyatning huquq bilan uyg'unlashgan, fe'l-atvor, xatti-harakatlar va qoida-me'yorlarning uzviy uyg'unlashgan shakli bilan bog'liq. Jumladan, eng qadimiy madaniy tarixiy-huquqiy yodgorlik — Avestoda kishilarning uyushib yashashi, o'zaro munosabatlar va aloqalarning axloq va me'yorlarga tayanishi kabi g'oyalar ilgari surilgan. Bunda o'z-o'zidan jamiyatda qonun ustuvorligiga erishish, jamiyatni shaxs tomonidan emas, qonun boshqarishi kabi fuqarolik jamiyatining ilk belgilari namoyon bo'lgan. Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida mamlakatni boshqarishda adolatli qonun zarurligi, faol fuqarolik jamiyatini shakllantirish mohiyati chuqur tahlil etilgan. Qonunlari mukammal bo'lgan mamlakatda adolat, inson huquqlari ustuvor bo'lishi muqarrar ekanligi bayon qilib berilgan. Forobiyga ko'ra, "Shahar (mamlakat) aholisi xushxulqqa ega bo'lmagan taqdirda hokimiyatga ehtiyoj tug'iladi", jinoyatchilik, bezorilik, qonunbuzarlik qonunlar zaif, aholi axloqiy-ma'naviy jihatdan barkamol bo'lmagan sharoitda avj oladi. Bunday xalqni tartibga chaqirish uchun kuchli ta'sir o'tkazuvchi hokimiyat kerak bo'ladi. Bu kabi g'oyalar Ibn Sino, Beruniy, Xorazmiy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur va boshqalar tomonidan ham ilgari surilgan va amaliyotda keng qo'llanilgan.

Uzoq tarixiy rivojlanish natijasida fuqarolik jamiyatini hozirgi zamonaviy tushunish shakllandi. Unga ko'ra, fuqarolik jamiyatida mulkchilik shakllarining xilma-xil va teng bo'lishi, mehnat va tadbirkorlikning erkinligiga yo'l qo'yilishi, mafkuraviy xilma-xillik va axborot erkinligi, inson huquq va erkinliklarining daxlsizligi, rivojlangan o'zini o'zi boshqarish, madaniylashgan huquqiy hokimiyat bo'lishi hamda jamiyat hayotining barcha sohalarida qonun ustuvorligi ta'minlanishi muhim hisoblanadi. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini qurish tarixiy an'ana bo'lsada, u butunlay yangi tarixiy sharoitlarda jahon davlatchiligi ilg'or tajribalari va ko'p ming yillik milliy an'analarning sintezi sifatida dunyoga kelmoqda. Ya'ni erkinlik va axloq, ozodlik va tarbiya, qonunga itoatkorlik va siyosiy huquqiy faollik, hurriyat va qat'iy tartib-intizom uyg'unligida fuqarolik jamiyati shakllantirilmoqda.⁶

Fuqarolik jamiyati insoniyat jamiyatining oliy shakli, oliy ko'rinishidir. Bu jarayon hozir ham, bundan keyin ham shakllanish va takomillashish bosqichida davom etadi.

Fuqarolik jamiyati tushunchasi insoniyat rivojlanishining ilk bosqichlaridanoq "ideal davlat", "ideal jamiyat", "ideal shoh" tushunchalari negizida shakllana boshlagan.

Fuqarolik jamiyati murakkab tushuncha bo'lib, uni uchta yo'nalishga bo'lib tavsiflash mumkin:

1. Iqtisodiy;
2. Siyosiy
3. Ma'naviy-axloqiy

Fuqarolik jamiyati xususiy mulkchilikka keng yo'l beruvchi va unga asoslangan bozor iqtisodiyoti munosabatlariga, erkin iqtisodiy faoliyat ta'minlangan shart-sharoitga tayanadi. Aynan xususiy mulkchilik muhiti va munosabatlari qaror topgan jamiyatda shaxsning mulkiy

⁵ A.Azizxo'jaev, O.Husanov, X.Azizov. Konstitutsiyaviy huquq (izohli lug'at) "Akademiya". Toshkent-2001.113-b.

⁶ <https://enc.for.uz>

mustaqilligi, iqtisodiy faoliyat yuritishdagi erkinligi ta'minlanadi. Xuddi shu asnoda shaxs davlat hokimiyatiga nisbatan avtonom, mustaqil mavqeni egallaydi. Davlat xususiy hayot sohasiga, shaxs va tashkilotlarning qonuniy iqtisodiy faoliyatiga aralashmasligi lozim.

Bugungi kunda ko'ramizki, xususiy tadbirkorlikka keng yo'l va imkoniyatlar ochib berilganligini va bu orqali ham fuqaro, ham davlat manfaat ko'rmoqda. Bu siyosat mustaqillikka erishganimizdan keyin o'z samarasini asta sekin berib kelmoqda.

Fuqarolik jamiyati konsepsiyasini yaratishga katta hissa qo'shgan nemis faylasufi Gegel, bu jamiyatni burjuacha ishlab chiqarish munosabatlari majmui sifatida tushungan. U ikki asosiy prinsipni ajratib ko'rsatgan:

Birinchidan, shaxslar o'z xususiy manfaatlaridan kelib chiqib harakatlanadilar; Ikkinchidan, insonlar shunday ijtimoiy munosabatlar tizimini vujudga keltiradilarki, bunda har kim boshqa kimsaga bog'liq bo'ladi.

Xususiy mulkchilikka asoslangan ijtimoiy struktura bo'lmish fuqarolik jamiyati bozor iqtisodiyoti munosabatlari tizimidan iboratdir. Bunday munosabatlarga ishlab chiqarishdagi raqobat va unda hokimiyatning ma'muriy aralashuvini cheklash orqali erishiladi. Fuqarolik jamiyati insonning ijodiy faolligini namoyon etishga yo'l ochuvchi munosabatlar shakllangan taqdirda zohir bo'ladi.

O'zbekistonda ham xususiy mulkchilikka asoslangan iqtisodiy munosabatlar tizimi qaror topmoqda. Tadbirkorlikka, kichik va o'rta biznesga keng yo'l ochilib, tegishli tashkiliy va huquqiy mexanizmlar vujudga keltirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi fuqarolik jamiyatining qaror topishini xususiy mulkning qat'iy mavqega ega bo'lishi bilan bog'laydi. Shu asosda hozirgi paytda jamiyatda keng ko'lamda xususiylashtirish jarayonlari amalga oshirilmoqda.

Nima sababdan islohotchi-davlat O'zbekistonda demokratik fuqarolik jamiyatini jadal shakllantirib borishdan manfaatdor?

Birinchidan, shu asnoda jamiyatning ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sari olg'a siljish yo'llari va usullari xususida fuqarolar kelishuviga erishish to'g'risida norasmiy ijtimoiy shartnoma tuzish va uni ro'yobga chiqarishda islohotchi – davlat uchun sherik vujudga keltiriladi;

Ikkinchidan, fuqarolik jamiyati o'z institutlari orqali shaxsning davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etishini ta'minlagan holda, davlatda vakillik demokratiyasining va memlakatdagi ijtimoiy-tizimning asosi hisoblanadi;

Uchinchidan, O'zbekiston xalqi fuqarolik institutlari va mexanizmlari, avvalo saylov tizimi orqali o'zining siyosiy yuksalishi va hayotiy muhim milliy manfaatlarini ifodalashi uchun barqaror shart-sharoitlar yaratmoqda.

To'rtinchidan, fuqarolik jamiyati shaxs va jamiyat, fuqaro va davlat, etnik va konfessional jamoalar, ijtimoiy demografik guruhlarining hayotiy muhim manfaatlarining o'zaro maqbul muvozanatidan kelib chiqqan holda quriladi;

Beshinchidan, demokratik jamiyat fuqarolarning siyosiy va ijtimoiy faolligiga asoslangan. O'z navbatida, uning o'zi turmushning barcga sohalaridagi islohotlar jarayonida bunday faollikning o'sib borishini izchil rag'batlantirib borage va davlatning byurokratlashuvi, uning institutlari fuqarolarning hayotiy muhim manfaatlaridan uzilib qolishi xavfiga qarshi turadi.⁷

⁷ U.Tadjixanov, X.Odilqoriev, A.Saidov. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. "Sharq" nashriyot-marbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2001.390-391-b.

Fuqarolik jamiyatini kengroq va chuqurroq tasavvur qilishda biz aholining keng qatlamlari, ularning kasb-kori va qiziqishlarini hisobga olish lozim. Aynan tashkilot, uyushma, birlashma va partiyalar millatni, xalqni birlashtirib farovon jamiyat qurish maqsadini amalga oshirganlar. Fuqarolik jamiyati institutlarining roli va ahamiyatini kuchaytirishga, fuqarolarning eng muhim sotsial-iqtisodiy muammolarini hal etishga qaratilgan 200 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilingani ham bu soha rivojiga bo'lgan katta e'tiborni ko'rsatadi. Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini demokratlashtirish va erkinlashtirish, ularning ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonidagi keng ishtirokini ta'minlashda salmoqli ishlar amalga oshirildi. Xususan, ushbu institutlar faoliyatining huquqiy asoslarini yaratishga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIII bobi jamoat birlashmalari faoliyatining konstitutsiyaviy asoslariga bag'ishlangan bo'lib, unda ushbu tashkilotlarning turlari, faoliyat ko'rsatish tartibi, ularning davlat hokimiyati organlari va mansabdor shaxslardan mustaqilligi kabi tamoyillar mustahkamlab qo'yilgan.⁸

“O'zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi⁹”

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 56-modda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov.I.A.O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbollarning asosiy tamoyillari. -T.:O'zbekiston,1995.
- 2.Karimov.I.A.O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.:O'zbekiston.1997.
- 3.U.Tadjixanov,X.Odilqoriev,A.Saidov.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. “Sharq”nashriyot-marbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2001.
- 4.H.H.Mahmudov,R.T.Berdiyarov,G.M.Isroilova.Huquqshunoslik. “Voris nashriyot”.Toshkent-2010.
- 5.A.Azizxo'jaev,O.Husanov,X.Azizov. Konstitutsiyaviy huquq (izohli lug'at) “Akademiya”.Toshkent-2001.
6. <https://enc.for.uz>
- 7.V.H.Qo'chqorov,A.T.Zamonov,N.K.Ismatova.Fuqarolik jamiyati asoslari. Toshkent.2016.
- 8.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.Toshkent-“O'zbekiston”-2019.

⁸ V.H.Qo'chqorov,A.T.Zamonov,N.K.Ismatova.Fuqarolik jamiyati asoslari.Toshkent.2016.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.Toshkent-“O'zbekiston”-2019.19-b.